

“Maqsadga yo‘naltirilgan transformatsion kouching” metodi

Haytbayeva S. R.

*Xalqaro Nordik universiteti
“Pedagogika” kafedrasida katta
o‘qituvchisi., p.f.f.d (PhD)*

s.haytbaeva@nordicuniversity.org

Zamonaviy ta‘lim jarayonida talabalarni faollikka undash, ularning ichki motivatsiyasini oshirish va mustaqil o‘qishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir. Shu maqsadda, biz ta‘lim jarayonida "Maqsadga yo‘naltirilgan transformatsion kouching" metodini qo‘llash va takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqmoqdamiz. Ushbu metod kouching tamoyillariga asoslangan bo‘lib, talabalarni o‘z shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Metodning asosiy vazifasi – ta‘lim oluvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘zlarining kuchli jihatlarini aniqlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu yondashuv individual va guruhli faoliyat bilan uyg‘un holda olib borilib, talabalar o‘z natijalari, yutuqlari va muammolarini muntazam tahlil qilib borishadi. Shu orqali ularda o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yish va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllanadi.

Mazkur metod oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u shaxsiy o‘qishni rag‘batlantirish, natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi jihatlarni qamrab oladi. Metod orqali o‘qituvchi talabalarga yo‘lboshchi sifatida yondashib, ularni o‘z imkoniyatlarini chuqurroq anglash va ta‘lim jarayonida ongli ishtirok etishga yo‘naltiradi.

Natijada, talabalar o‘z ta‘lim yo‘lini mustaqil boshqarishga, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga va o‘z shaxsiy yutuqlarini baholashga o‘rganadilar. Bu esa ularning hayotiy va kasbiy faoliyatida mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Metodni qo‘llash bosqichlari:

1. Ochiq savollar orqali motivatsiyani kashf qilish texnikasi

Mashg‘ulot boshida yoki o‘quv jarayonida quyidagi ochiq kouching savollari beriladi. Savollar talabaning ichki ehtiyojlari va maqsadlarini anglashga yordam berishga qaratilgan:

- Men nega o‘qishim kerak?
- Bugungi dars mening kelajagimga qanday ta‘sir qiladi?
- Men qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqchiman?

- Kelajakdagi maqsadlaringa erishish uchun bugun qanday qadam tashlashim mumkin?

Natija: Savollar orqali talabalar o‘zlarining shaxsiyatidagi ichki motivlarini anglaydi. Shaxsiy o‘shish uchun ta’lim jarayoni muhim ekanligini his qiladi.

2. “Kelajakdagi Men” texnikasi

Talabalarga 5 daqiqa davomida ko‘zlarini yumib tasavvur qilish mashqi topshiriladi:

"Ko‘zlarinigizni yuming va tasavvur qiling: 5 yildan keyin siz o‘z sohangizda katta muvaffaqiyatga erishgansiz. Atrofingizda sizni hurmat qiladigan hamkasblar, sizning bilim va tajribangizdan o‘rnak oladigan yosh mutaxassislar bor. Siz ishonch bilan o‘z ish faoliyatingizni davom ettiryapsiz, ilgari qo‘ygan maqsadlaringizga erishgansiz.

Endi o‘zingizga savol bering:

- Bu muvaffaqiyatga erishishda sizga qanday bilim va ko‘nikmalar yordam berdi?

- Siz qanday darslarni o‘rgandingiz?
- Qanday kitoblar o‘qidingiz?
- Qanday tajribalar orttirdingiz?
- Sizni o‘stirgan ustozlaringiz kimlar edi?
- Shu bilim va ko‘nikmalarni bugun qanday olish mumkin?

Natija: Talabalar ta’lim olish va kelajak muvaffaqiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi hamda harakat qilishga motivatsiya oladi.

3. Maqsadlarni SMART tizimi bo‘yicha aniqlash texnikasi

Har bir talaba quyidagi formula bo‘yicha ta’lim maqsadini yozib chiqadi:

- Specific (Aniq) – Maqsad tushunarli va aniq bo‘lishi kerak.
- Measurable (O‘lchab bo‘ladigan) – Qanday natija bilan baholay olamiz?
- Achievable (Erishish mumkin bo‘lgan) – Realistik maqsadmi?
- Relevant (Muhim) – Bu maqsad hayotim va kelajagim uchun dolzarbmi?
- Time-bound (Muddatli) – Qachongacha bu maqsadga erishishim kerak?

Masalan:

“Kelajakda ekologiya sohasida ishlashni maqsad qilganman, shu sababli bu semestrda ekologiya, biologiya va atrof-muhit bilan bog‘liq fanlar bo‘yicha bilimlarimni oshirish uchun har hafta 5 ta ilmiy maqola o‘qishni rejalashtirdim”

Natija: Talabalar o‘z harakat rejasini tuzadi, natijaga erishish yo‘lini ko‘radi.

4. O'zgarishlar dinamikasini kuzatish texnikasi

Ushbu texnika talabalar o'z rivojlanish dinamikasini muntazam tahlil qilish va o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. Jadvalni to'ldirish jarayonida talabalar "Bugungi darsda qanday yangi bilim oldim?", "Bu bilim menga kelajakda qanday yordam beradi?", "Oldinga qo'ygan maqsadim bo'yicha qanday harakat qildim?" kabi savollarga javob berish orqali o'z ustida ishlashadi. Bu yondashuv ularga o'z ta'lim yo'nalishlarini ongli ravishda boshqarish va shaxsiy o'sishlarini baholash imkonini beradi.

№	Kunlar	Muvaffaqiyatlar va yutuqlar	Qiyinchiliklar va To'siqlar	O'z-o'zini tahlil qilish	Kelgusi reja
	Dushanba				
	Seshanba				
	Chorshanba				
	Payshanba				
	Juma				
	Shanba				
	Yakshanba				

O'zgarishlar jadvali

Hafta: _____ Sana: _____

Talabaning ismi, familiyasi: _____

Natija: Talabalar o'z rivojlanish dinamikasini doimiy kuzatib borishadi, bu ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

5. Guruhiy tahlil va ijobiy fikr bildirish

Mashg'ulot so'ngida talabalar "Muvaffaqiyat va rivojlanish" tamoyili asosida bir-birlariga fikr bildirishadi. Bu jarayonda har bir talaba o'z guruhdoshlari haqida ijobiy baho beradi. Ular boshqalarning o'tgan haftadagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatib, qanday jihatlar yaxshilanishi mumkinligi haqida tavsiyalar berishadi.

Muhokama jarayonida konstruktiv fikr bildirishga urg‘u beriladi, ya’ni tanqid emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi va yo‘naltiruvchi yondashuv qo‘llaniladi. Talabalar guruhlarda muloqot qilib, o‘zgarish jurnalida o‘zaro fikr almashishadi. Har bir talaba o‘zining yutuqlari va qiyinchiliklari bo‘yicha tavsiyalar oladi va ushbu fikrlarni jurnalda qayd etadi. Natijada, talabalar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, ta’lim jarayoni ijobiy muhitda kechishiga hissa qo‘shishadi.

Maqsadga yo‘naltirilgan transformatsion kouching metodi ta’lim jarayonida talabalarning o‘z shaxsiy rivojlanish yo‘llarini anglashiga, ularga mas’uliyat hissini singdirishga va ta’limga ongli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv talabalarga o‘zgarishlarni kuzatish, o‘z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik jihatdan tahlil qilinganda, quyidagi natijalar kuzatiladi:

- O‘ziga ishonchning ortishi: Talabalar o‘z yutuqlarini qayd etib, o‘zlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashadi.

- Maqsadli ta’lim olish: Har bir talaba shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilaydi va ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqadi.

- Mas’uliyat hissining shakllanishi: Jurnal yuritish orqali talabalar o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarga javobgarlik bilan yondashishni o‘rganadi.

- O‘quv jarayonining ijobiy muhitda kechishi: Guruhiy tahlil jarayonida talabalar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlaydi, konstruktiv fikr almashadi va birgalikda rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Shu tariqa, ushbu metod orqali talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аткинсон Мерлин, Чойс Т. Рей, искусство коучинга//Пер.с англ.-R.: Companion Group, 2010,-256стр.
2. Самохвалова О.В , Применение коучингового подхода к управлению воспитательно-образовательным процессом в условиях модернизации образования Методическое пособие пгт.Ижморский 2018, -48стр.
3. Whitmore, J. (2017). *Coaching for Performance: The Principles and Practice of Coaching and Leadership*. Nicholas Brealey Publishing.